

VOYAGA YETMAGANLARNI IJTIMOIIY HIMOYA MARKAZLARIGA QABUL QILISHNING TASHKILIY-HUQUQIY JIHALTLARI

Jumaniyazova Iroda Kurbanbayevna

Qoraqalpogʻ davlat universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya markazlariga qabul qilishning tashkiliy-huquqiy jihatlari atroflicha tahlil qilinadi. Unda voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoyaga muhtoj deb topish, ularni markazlarga joylashtirish uchun asoslar, qabul qilish tartibi, vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarning vakolatlari, shuningdek, voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini taʼminlash masalalari yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy himoya markazlariga qabul qilish jarayonida qonuniylik, individual yondashuv, bolaning eng ustun manfaatlarini va idoralararo hamkorlik tamoyillarini taʼminlashning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar. Voyaga yetmaganlar, ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya markazi, bolalar huquqlari, tashkiliy-huquqiy mexanizm, huquqiy kafolatlar, bolaning eng ustun manfaatlarini, idoralararo hamkorlik.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya markazlariga qabul qilish instituti ularning xavfsizligini taʼminlash va keyingi ijtimoiy-huquqiy taqdirini belgilashda muhim tashkiliy-huquqiy mexanizm sifatida namoyon boʻladi. Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya markazlariga joylashtirish jarayoni nafaqat ularni vaqtincha boshpana va zarur ijtimoiy xizmatlar bilan taʼminlashni, balki bolaning huquqiy maqomini aniqlash, uning oilaviy sharoitini oʻrganish, ota-onasi yoki qonuniy vakillarini aniqlash, zarur hollarda vasiylik va homiylik organlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari bilan hamkorlik qilishni ham nazarda tutadi.

Markazlar faoliyatining asosiy yoʻnalishlari quyidagicha:

- qarovsiz bolalarning shaxsini aniqlash, ularning oʻqishi va xulq-atvorini, oilasidagi muhitni hamda qarovsiz qolishiga sabab boʻlgan omillarni toʻliq oʻrganish;
- qarovsiz bolalarning ijtimoiy-huquqiy holatiga baho berish va tibbiy tekshiruvdan oʻtkazish natijasiga koʻra ularni ota-onasiga (ota-ona oʻrnini bosuvchi shaxslarga) topshirish yoki tegishli muassasalar (ixtisoslashtirilgan taʼlim, ixtisoslashtirilgan oʻquv-tarbiya, bolalar yoki sogʻliqni saqlash muassasalari)ga joylashtirilishini tashkil etish;
- qarovsiz bolalarga ijtimoiy-huquqiy yordam koʻrsatish, shu jumladan, ularni oziq-ovqat, birlamchi kiyim-kechak va ashyoviy taʼminot buyumlari bilan taʼminlash, vaqtincha saqlash va kasb-hunarga oʻrgatish tadbirlarini tashkil etish.

Voyaga yetmagan shaxsning qarovsiz qolganligini aniqlash bo'yicha:

voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar tomonidan — ta'lim muassasalarida, profilaktika inspektorlari tomonidan — xizmat hududida, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan — oilalarda o'rganish (kuzatish) va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish jarayonida qarovsiz bolalar aniqlanadi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalarda yashayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash va ular bilan manzilli ishlash yo'nalishidagi ishlarga fuqarolar yig'inlari raislari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari mas'ul etib belgilanib, ular zimmasiga mahallalarda qarovsiz qolgan bolalarning o'z vaqtida aniqlanmasdan qolish holatlari bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklanadi. Voyaga yetmagan shaxsning qarovsiz qolganligi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniqlangan hollarda ular bu to'g'risida profilaktika inspektoriga xabar beradi. Profilaktika inspektori birlamchi o'rganish natijalariga ko'ra bola qarovsiz qolganligi to'g'risida xulosaga kelsa, ushbu xulosani tuman (shahar) jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'iga taqdim etadi, u esa, xulosani ko'rib chiqib, bolani Markazga qabul qilish haqida yo'llanma tayyorlaydi va uni Markazga yuboradi. Markaz xodimlari 5 soat ichida maxsus avtotransport vositasida qarovsiz bola saqlanayotgan manzilga yetib kelib, uni qabul qilib oladi va belgilangan tartibda Markazga olib borib joylashtiradi.

Markaz boshlig'i hududiy ichki ishlar organlari rahbarining o'rinbosari — jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'iga qarovsiz bola qabul qilinganligi haqida navbatchilik qismi orqali xabar beradi. Markaz boshlig'ining so'roviga asosan hududiy sog'liqni saqlash muassasasi mutaxassislari 3 soat ichida Markazga yetib kelib, qarovsiz bolani belgilangan tartibda tibbiy tekshiruvdan o'tkazadi. Tibbiy tekshiruv xulosasiga ko'ra qarovsiz bolaning davolanishga muhtojligi (aqliy va ruhiy rivojlanishda yoshiga nisbatan ortda qolgan, tan jarohati, kasalligi, homiladorligi) aniqlangan hollarda u davolanish uchun tegishli sog'liqni saqlash muassasasiga yoki aqliy va ruhiy rivojlanishda yoshiga nisbatan ortda qolayotgan bolalarga mo'ljallangan muassasaga joylashtiriladi. Markaz tomonidan 48 soat ichida qarovsiz bolaning shaxsi aniqlanadi, uning o'qishi va xulq-atvorini, oilasidagi muhitni hamda qarovsiz qolishiga sabab bo'lgan omillar to'liq o'rganiladi, bolaning ijtimoiy-huquqiy holatiga baho berish natijasiga ko'ra ijobiy xulosaga kelinsa, bola ota-onasi (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar)ga topshiriladi. Markaz tomonidan ota-onasi (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar)ga topshirilgan bolaning o'qishi, xulq-atvori va oilasidagi muhit bir yil davomida voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar tomonidan mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar organlari bilan birgalikda monitoring qilib boriladi. Monitoring davomida bolaning ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda qolayotganligi kuzatilsa, uni belgilangan tartibda Markazga qaytarish choralari ko'riladi. Bolaning ijtimoiy-huquqiy holatiga baho berish natijasiga ko'ra

uning ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilada yashayotganligi va davlat yordamiga muhtojligi to'g'risida xulosaga kelinsa, Markaz ushbu bolani 48 soatdan ortiq, biroq 30 kundan (zarurat bo'lganda 45 kundan) ko'p bo'lmagan vaqt davomida Markazda saqlash haqida sudga iltimosnoma kiritadi. Ushbu iltimosnoma 24 soat ichida Markazda sayyor yoki onlayn shaklda o'tkaziladigan yopiq sud majlisida ko'rib chiqiladi. Sud iltimosnomani ko'rib chiqish jarayonida qarovsiz bolaning ota-onasi (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar) rozi bo'lmagan holda ham uni Markazga va kelgusida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga qabul qilish masalasini ko'rib chiqadi. Qarovsiz bolaning doimiy yashash joyi boshqa mintaqa hududida bo'lsa, Markaz 48 soat ichida uni tegishli hududdagi Markazga olib borib topshiradi.

Qarovsiz bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga joylashtirish va o'qishi davomida xulq-atvorini nazorat qilish bo'yicha hududiy jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'ining so'roviga asosan uch kun ichida Markazda Bolalar masalalari bo'yicha hududiy komissiyaning sayyor yoki onlayn shakldagi yig'ilishi o'tkaziladi hamda qarovsiz bolani uning xulq-atvori, psixologik qiyofasi, yoshi, iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari va boshqa omillarni inobatga olgan holda tegishli ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilinadi hamda qaror nusxasi tegishli vazirlik yoki idoraga yuboriladi. Tegishli vazirlik yoki idora uch kun ichida Bolalar masalalari bo'yicha hududiy komissiyaning qaroriga muvofiq bolani o'qishga qabul qilish to'g'risida yo'llanmani o'ziga bevosita bo'ysunuvchi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga, yo'llanmaning nusxasini — Markazga yuboradi.

Markaz yo'llanmaga muvofiq 48 soat ichida bolani tegishli ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga olib borib topshiradi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi o'quv yili davomida (tegishli sinflar uchun belgilangan yoshlarga muvofiq ravishda) o'zi bevosita bo'ysunuvchi vazirlik yoki idoraning yo'llanmasiga muvofiq qarovsiz bolani qabul kvotasidan tashqari 5 foiz miqdorida ajratilgan qo'shimcha kvotalar doirasida sinov va imtihonlarsiz o'qishga qabul qiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi rahbarining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari qarovsiz bolalarga jamoat tarbiyachisi sifatida biriktiriladi hamda ularning o'qishi va xulq-atvorini doimiy ravishda nazorat qilib boradi. Qarovsiz qolgan bolalar bilan ishlash, ularni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga joylashtirish va o'qish jarayonlarining samaradorligini oshirib borish ishlariga Xalq ta'limi vazirligi bevosita mas'ul etib belgilanib, bu boradagi ishlarni tashkil etishda ularning hududiy organlari rahbarlari zimmasiga shaxsiy javobgarlik yuklanadi. O'qish davomida qarovsiz bolaga hududiy jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i — umumiy murabbiy, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida xizmatni o'taydigan voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog — individual murabbiy sifatida biriktiriladi hamda qarovsiz bolaning o'qishi va xulq-atvorini kunlik nazorat qilib boradi. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida qarovsiz bolaning o'qishi va xulq-atvorini

kunlik nazorat qilib borishda, shuningdek, ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatilishini tashkil etishda hududiy ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig'ining yoshlar huquqbuzarliklari profilaktikasi bo'yicha o'rinbosari (o'g'il bolalar uchun) va xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari (qiz bolalar uchun) bevosita ko'maklashadi.

Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya markazlariga qabul qilishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur institut voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash hamda ijtimoiy moslashuviga ko'maklashishning muhim mexanizmlaridan biridir. Ijtimoiy himoya markazlariga joylashtirish jarayoni bolaning muayyan hayotiy vaziyatini tezkor baholash, uning huquqiy maqomini aniqlash, zarur ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va keyingi taqdirini belgilash bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu jarayonda qonuniylik, insonparvarlik va bolaning eng ustun manfaatlarini ta'minlash tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023
2. "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.01.2008. O'RQ-139-son.
3. "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.08.2021
4. "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori. 03.08.2021